

## 1920-1924-YILLARDAGI XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOTIGA BIR NAZAR.

**Tillayev Dilmurod Ollaberganovich**  
*Urganch Davlat Universiteti Akademik Litseyi*  
*tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada 1920-1924-yillardagi Xorazm Xalq Sovet Respublikasida ijtimoiy-siyosiy hayoti yoritilgan bo'lib, unda o'sha davr boshqaruv tizimi, madaniyati haqida so'z boradi.*

**Ushbu maqolani yozishdan maqsad:** *1920-1924-yillardagi Xorazm Xalq Sovet Respublikasida ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi ma'lumotlarni ochib berish.*

**Kalit so'zlar:** *Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, tarix, inqilob, boshqaruv, ulug'.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqloq yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent. Qo'qon. Shahrisabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Toptalgan tariximiz, qutlug' qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta'mirlandi, qayta tiklandi. Bu kabi ma'lumotlar haqida juda ko'p ma'lumotlarni keltirish mumkin. Ushbu maqolada tarixga nazar tashlab, 1920-1924-yillardagi Xorazm Xalq Sovet Respublikasida ijtimoiy-siyosiy hayoti, boshqaruv tizimi, inqirozi hamda sabablari kabi ma'lumotlarni keltirishni joiz topdim.

Ma'lumki, biz to'xtalib o'tadigan davrda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi deb nomlangan va Xiva Xonligi hududida xonlik tuzumi ag'darib tashlangach yuzaga kelgan xalq respublikasi edi. Ayni o'sha davrda uning maydoni 62 000 km<sup>2</sup>, aholisi 550 ming kishi (1920) edi. Milliy tarkibi, asosan, o'zbeklar (65%), qisman turkmanlar (26,8%), qoraqalpoqlar (3,8%), qozoqlar (3,4%) va boshqalardan iborat. Xorazm XSR ma'muriy jihatdan 4 ta viloyat (Hazorasp, Yangi Urganch, Toshhovuz, Xo'jayli) va 26 ta tumanga bo'lingan (1923). Xorazm XSR hududi Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Turkiston ASSR, Qozog'iston ASSR bilan chegaralangan. Poytaxti Xiva shahri bo'lgan. Xorazm XSR 1920-yil 26-aprelda tuzilgan. 1923-yil 20-oktabrda Xorazm XSR nomi Xorazm Sotsialistik Sovet Respublikasi (Xorazm SSR) deb o'zgartirilgan.<sup>1</sup>





O'rta Osiyo respublikalarini milliy-hududiy chegaralarini belgilash jarayoni ortidan Xorazm SSR hududi yangi tuzilgan O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR hamda Qozog'iston ASSR tarkibiga kiritilgan. Xorazm XSR 1922-yilgi sovet xarita-sxemasida 1923-yil 17–20-oktabrda bo'lgan Butun Xorazm xalq vakillarining 4-qurultoyi Xorazm XSRni Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (Xorazm SSR)ga aylantirish to'g'risida qaror qabul qildi. 20-oktabrda Xorazm SSRning 5 bo'lim va 12 bobdan iborat yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu Konstitutsiya mamlakatning sotsialistik qurilish yo'liga o'tishini qonun yo'li bilan mustahkamladi. Unga muvofiq, yerning xususiy mulk ekanligi bekor qilindi, vaqf yerlari butunlay tugatildi. Mavjud yerlar umumxalq mulki deb e'lon qilinib, barcha vaqf mulklari maorif nozirligi ixtiyoriga berildi. Qozixonalar faoliyati taqiqlanib, sovet sudlari tashkil qilindi. Shu tarzda 1923-yil oktabr oyidan boshlab Xorazm Respublikasidagi demokratik o'zgarishlarga chek qo'yildi. Xorazmni

<sup>1</sup>.Xorazm Xalq Sovet Respublikasi" (o'zbekcha). Ensiklopedik lug'at. 2. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi. 1988-yil, 369-bet.

sovetlashtirish jarayoni o'zining yuqori bosqichiga ko'tarildi. Hukumatning keskin yangi siyosatidan norozi bo'lgan barcha kishilar bunday vaziyatda istiqloлчаilar safini to'ldirdilar. Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakat Xorazm vohasiga ham keng tarqalgan edi. Xorazm SSRning markaziy va janubiy qismlarida ko'plab sardor va qo'rboshilarning harakatlari yanada avj oldi.

Afsuski, Xorazmda hokimiyatning yangi organlari faoliyati uzoqqa cho'zilmadi. 1921-yil sentabr oyida bo'lgan Xorazm XSR MIK majlisida „O'z vazifasini bajara olmagan va ishni chalkashtirgan“ degan soxta ayblar bilan M. Oллоberganov o'z




lavozimidan olib tashlandi va o'limga hukm qilindi. Umuman olganda, Xorazm XSR mavjud bo'lgan qariyb 5 yil davomida bolsheviklar tomonidan Xorazm XSR MIK raislari va hukumat boshliqlarining har biri 10-martadan o'zgartirildi. Xorazmda o'tkazilgan bunday davlat to'ntarishlari oqibatida ko'plab siyosatchilar qatag'on qilindi.

Xorazm XSRda iqtisodiy siyosat va xo'jalik sohasidagi islohotlar ziddiyatli tarzda kechdi. Xorazm Respublikasidagi soliq siyosatida sovet Rossiyasining ta'siri kuchliroq bo'lganligi uchun sinfiy yondashuv yaqqol namoyon bo'ldi. Soliqning og'ir yuki savdogarlar, sudxo'rlar va yirik yer egalari zimmasiga to'g'ri keldi. 1922-yil dekabrda qishloq xo'jaligida yagona soliq tizimi joriy qilindi. Soliq to'lashni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida davlat banki va soliq palatasi tashkil qilindi. 1923-yil iyunda hunarmandchilik va sanoat sohasidagi soliqlar ham bir tizimga solinib, davlat sanoat solig'i joriy qilindi. Yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ning e'lon qilinishi bilan Xorazm XSRda karvonsaroylar, korxonalar, ko'llar va to'qaylar ijaraga berila boshlandi. Telefon simlari tortilib, daryo kemachiligi tiklashga kirishilgan. Bir qancha yirik ko'priklar qurildi. Paxta maydonlarining hududi 1921-yildagi 10 ming tanobdan 1924-yilda 85 ming tanobga, hosildorlik 100 ming pudden 800 ming pudga ko'tarildi. Umumiy ekin maydonlari 1913-yildagi darajaning 62 % ni, hosildorlik 70–75 % ni tashkil qildi. 1924-yilga kelib, 6 ta paxta tozalash zavodi, 10 ta g'isht zavodi, yog' zavodi, bosmaxona, elektrstansiya tiklandi, qog'oz va shisha zavodlari qurildi. Sanoatda davlat sektori ustuvor mavqeni egalladi.

1920-yil 2-aprelda esa turkman urug' boshliqlari Qo'shmuhammad, G'ulomalixon, Baxshi va boshqalar ishtiroqida Gelbart kotibligida, Olloqulov tarjimonligida majlis o'tkazilib, birinchi navbatda o'zaro nizolarga chek qo'yish masalasi muhokama qilindi. Chunki Xorazm vohasi xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda asosiy masala ilgari Xiva xonligi xududidagi o'zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq millat mehnatkashlari o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlash, qo'shni Amudaryo viloyati bilan ularning o'zaro hamkorligini kuchaytirish, umuman Xorazm mehnatkashlari bilan Turkiston Respublikalari mehnatkashlari o'rtasidagi do'stlikni yuqori darajaga ko'tarishdan iborat edi. Bu kengashda o'zaro nizoli harakatlarning aybdori chor Rusiyasi bo'lib kelgani aytili. Kelgusida mehnat bilan harbiy majburiyat teng taqsimlansa o'rtadagi nizolarga chek qo'yilishi anih ko'rsatildi. G.I. Broyda tashabbusi bilan boshlangan bu kengashda ishtirok qilgan o'zbek va turkman urug' boshliqlari, oqsoqollari bunga tamoman rozi bo'ldilar. Shu bilan turkman mehnatkashlarining vakillarini ham markaziy hokimiyatga saylashni zarur topdilar. Oilaviy aloqalar o'rnatishni ilgari surdilar. Butun Xorazm vakillarining birinchi qurultoyiga saylanadigan 200 nafar





vakillarning 80 nafari turkmanlar vakillari bo'lishi belgilandi. 1920-yil 9-aprelda Vaqtli hukumatning majlisi chaqirilib, Nozirlar sho'rosi tuzildi. Polvonniyoz hoji Yusunov (Davlat nazorati), Bekjon Rahmonberganov – Xalq madaniyati va maorifi noziri, Boboovun Salimov – adliya noziri, Jumaniyoz Sultonmurodov – vaqtli hokimiyat raisi Odomovun Ortiqov – muovini va boshqalar.

Xorazmda endigina shakllanayotgan hokimiyatning shu majlisida davlat tuzilishi, nozirliklar tashkil qilish, maktab, kasalxona ochish, yangi lavozimlar saylov nizomi haqidagi masalalar muhokama qilindi. Xorazmdagi 20-yillardagi o'zgarishlarning eng muhim natijadiri: o'zbeklar bilan turkmanlar hamkorligi vujudga kelib, mehnat armiyasi tashkil qilindi. Saylov qonuni, sudxo'rlikka qarshi dekret, vakuf erlari haqida nizom, oliy sud haqida, xon erlari va mulklarini musodara qilish haqida konunlar e'lon qilindi.

1920-yil 30-aprelda Xorazm millatidan va dinidan qat'i nazar barcha mehnatkashlarning respublikasidir, deb e'lon qilindi. Shunday qilib 1920- yil aprel oyida Xorazmda mustaqil Xalq Respublikasi e'lon qilinib, barcha xalqlar bilan birodarlikda yashashga katta umid bog'landi. Endigina siyosiy xaritada paydo bo'lgan mustahil Xorazm respublikasiga qo'shni xalqlar yordam qo'lini cho'zdilar. Qo'shni Jumhuriyatlar 700 ming kishi hayot kechirayotgan Xorazm vohasini mahsulotlar va texnika uskunalari bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oldi va qaytib olmaslik sharti bilan 20 million so'm ajratdi. Turkiston komissiyasining qarori bilan 1920- yil aprel – may oylarida yana 150 million so'm yordam berildi. Joylarda yangi tashkilotlar tashkil qilishga kirishdilar. Tezda yangi zamon maktablari, bolalar bog'chasi, qariyalar uyi, internat-maktablar vujudga keltirildi. Turkkomissiya esa Xorazmga tezlik bilan birinchi navbatda 3 do'xtir, 8 feldsher, bir tish do'xtiri, bir akusherka, uch kasalxonani ta'minlashga etadigan dori-darmonlar 10 o'qituvchi, o'qish qurollari, 50 ming pud kerosin, 50 ming pud neft, idish-asboblarni yubordi.





1920-yil 7-martdan nashr qilinayotgan «Inqilob quyoshi» ro‘znomasi, 3-apreldan ish boshlagan «Maorif saroyi», aprel oyi oxirlarida birinchi tomoshabinlarni qabul qilgan Xiva tarixiy muzeyi, birinchi bo‘lib Xivada ish boshlagan o‘zbek, tatar, rus teatr truppalari yangi hayot ustunliklarini tashviqot qila boshladilar. «Maorif saroyi» ochilishi marosimiga Toshkent shaharining oxuni Mulla Qoriev ishtirok qilishining o‘zi katta voqea edi. Shunday qilib, machit davlatdan ajralgani bilan xokimiyat din egalariga qarshi tazyiq qilmadi. Dindorlar ham partiya, sovet tashkilotlarida xizmat qila boshladilar. An’anaviy o‘quv yurtlari – machit va madrasalar o‘z faoliyatini davom qildirdilar va ularda minglab yoshlar ta’lim-tarbiya oldilar.

1920-yil iyun oyidan Xiva shahrida «Rosta», «Krasnoarmeyskiy listok» ro‘znomalarining nashr qilina boshlashi, o‘qituvchilar tayyorlash kursining ish boshlashi, ayrim kitobchalarning nashr qilinishi kabi tarixiy voqealarning yuz berishi Xorazmda fan va madaniyatning rivojlanayotganini ko‘rsatar edi. Bulardan tashqari, Xorazmda sotsial masalalar bo‘yicha tengi yo‘q ishlar qilindi. 1920-yil boshlarida Xorazm xududidagi o‘zaro nizolar sababli minglab xotin-qizlar bandilikda saqlanayotgan edilar. Xalq hokimiyati ana shu xo‘rlangan xotin-qizlarni o‘zaro munozaralar yo‘li bilan o‘z ota-onalari qoshiga, o‘z oilalariga qaytardi. 20-yillarning birinchi kunidan boshlab Xorazm vohasida yangi hayot qurilishida mashhur tashkilotchilar, madaniyat xodimlari Matyoqub Otajonov, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Mulla- bejxon Raxmonov, Bobooxun Salimov, Odamoxun Ortiqov,




Jumaniyoz Sultonmurodov, Orozgaldi Hojimamedov, Afzol Tagirov, Husayn Qo'shoyev, Otajon Abdolov, Safo Olloberganov, Matyoqub Axangarov, Ro'zmat Yusupov, Yusuf Ahmadov, I.Xonsuvorov, Zokir. Bikchurin, Xakimboy Muhammadiyev, Mullanavro'z Ro'ziboyev, G.I. Broydo, Sergey Malishyev alohida katta xizmat qildilar. Bu ilg'or tashkilotchilarning tarixda iz qoldirgan eng muhim xizmati shuki, ular xalq ommasi orasidan haqiqiy qobiliyat egalari tanlab olabildilar va tarbiyalay oldilar. Ularning hadiqiy tarbiyasini olgan qobiliyat egalari Davlat Rizayev, Karim Boltayev, Qurbon Olloberganov, (Beregin), Soib Nazariy, Onabibi Safoyeva, Ahmadjon Ibrohimov, Xayrulbanot Saydoshova, Qosim Zaripov, Masharip Polvonov, Eshmurot (Shuxrat) Divanov, Umar Qurboniy, Bolta Sharipov kabi yoshlar davlat ishlariga ishtirok qilib, ta'lim-tarbiya sohasida faol ko'zga ko'rina boshladilar. O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (Sredaz EKOSO)ning tazyiqi natijasida 1923-yil yozida Xorazmdagi milliy valyuta Rossiya SFSR rubliga (10 Xorazm so'miga 1 Rossiya SFSR rubli nisbatida) almashtirilgan edi. 1924-yildan boshlab Xorazm Respublikasi ham xuddi Buxoro XSR singari SSSRning yagona bank va moliya tizimiga to'liq tortildi. Shu asnoda Xorazm SSR armiyadan keyin davlat mustaqilligini muhim timsoli bo'lgan milliy valyutadan ham mahrum qilindi



Xorazm XSRning 500 rubl banknotasi (1923-yil)

Xorazm XSR davlat boshqaruvi jihatidan xalq demokratik respublikasi hisoblangan. Xorazm XSR Konstitutsiyasiga muvofiq, davlat hokimiyatining oliy boshqaruv organi, Butun Xorazm xalq vakillari qurultoyi, qurultoylar o'rtasida — Xorazm XSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi hisoblangan. Ijro qiluvchi oliy organ (hukumat) — Xorazm Xalq Nozirlar Sho'rosi sanalgan. Biroq, asosiy hokimiyat Xorazm XSRda turgan sovet Rossiyasi va SSSRning turli favqulodda organlari qo'lida bo'lgan.





**Xorazm SSRning tugatilishi.** Butun Xorazm xalq vakillarining 5-qurultoyi (1924-yil 29-oktabr–2-noyabr) O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish munosabati bilan Xorazm SSR tugatilishini e‘lon qildi. Xorazm SSRning o‘zbeklar yashaydigan 23 ta tumani yangidan tashkil qilingan O‘zbekiston SSR tarkibiga Xorazm viloyati qilib kiritildi. Xorazm SSRning qolgan hududlari Turkmaniston SSR va Qoraqalpoq muxtor viloyati (Qozog‘iston ASSR tarkibida)ga qo‘shildi. 1924-yil 23-noyabrda Xorazm SSR MIK va 30-noyabrda Xalq Nozirlar Sho‘rosi o‘z faoliyatini to‘xtatdi.

Xulosa qilib aytganda, bizning qadimiy va go‘zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e‘tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu-ulomolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy bilimlarning, ayniqsa islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga yetgan ulug‘ allomalarimizning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi" (o‘zbekcha). Ensiklopedik lug‘at. Toshkent: O‘zbek sovet ensiklopediyasi. 1988-yil
2. N. Atayeva, F. Rasulova, S. Hasanov. Umumiy pedagogika o‘quv qo‘llanma: Toshkent -2011-yil.
3. «O‘zbekiston tarixi» dasturi. Toshkent. 1980-1990-yil.
4. Tarix o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2005 -yil

